

## ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA “START UP”LAR ORQALI KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Rajabova Mohinur Xusin qizi**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti magistratura bo‘limi surdopedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion start up loyihalarning o‘rni va ahamiyati haqida tahlil qilingan. Shuningdek, start uplar orqali eshitishda nuqsoni bor bolalarning individual rivojlanishiga imkon beruvchi texnologik hamda metodik yondashuvlar yoritilgan. Ilmiy-ommabop maqola doirasida bir nechta innovatsion start up g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy hamda ta‘limiy foydalari asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *eshitishda nuqson bor bolalar, start up, kreativ fikrlash, inklyuziv ta‘lim, innovatsiya.*

Zamonaviy ta‘limida inklyuzivlik tamoyili asosiy ustuvorliklardan biriga aylangan. Har bir bola - u qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishidan qat‘iy nazar - jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqlidir. Ayniqsa, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar axborotni qabul qilish, fikr almashish va ijtimoiylashishda turli cheklovlarga duch keladi. Bu holat ularning kreativ fikrlash qobiliyatini ham to‘laqonli rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ana shu muammoga zamonaviy texnologiyalar va start up yondashuvi orqali yechim topish mumkin. Start up - bu kichik hajmli, lekin katta samaradorlikka ega bo‘lgan, yangi g‘oya asosida ishga tushirilgan loyiha yoki tashabbusdir. Bugungi kunda ta‘lim tizimida bunday loyihalar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus metodlar talab etiladi. Misol uchun, audio asosli o‘yinlar ular uchun mos emas. Shuning uchun vizual, taktil va interaktiv elementlarga asoslangan texnologiyalar foydali bo‘ladi. Bunday yondashuvlar orqali bola o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, muammolarga yangi yondashuvlar topishni o‘rganadi.

Quyida ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilishi mumkin bo‘lgan ba’zi start up g‘oyalari keltirilgan:

“Sukutdagi Ranglar” imo-ishora tili asosida ishlaydigan, interaktiv vizual o‘yin. Bola shakl va ranglar orqali tafakkurni rivojlantiradi.

“Tuyg‘ular Ovozi” bolaning yuz ifodasi, mimikasi yoki harakati asosida uning his-tuyg‘ulari vizual tarzda aks ettiriladi.

“Vizual Kodlash Darslari” dasturlash asoslari blokli, suratli, vizual ko‘rinishda o‘rgatiladi, tanqidiy va tizimli fikrlash rivojlanadi.

Bunday loyihalar orqali nafaqat bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, balki ular o‘z tengdoshlariga teng tarzda jamiyatda ishtirok eta oladigan darajaga yetadi. Ta’limda bu kabi yondashuvlar keng qo‘llansa, inklyuziv ta’lim amalda ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ijodiy va erkin fikrlashini rivojlantirishda start up yondashuvi muhim vositaga aylanmoqda. Innovatsion loyihalar yordamida bu bolalarning imkoniyatlari kengayadi, o‘zlarini jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida his qilishadi. Shuning uchun davlat, ta’lim muassasalari va texnologik kompaniyalar hamkorligida bunday start up’lar ko‘paytirilishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Allport,G. (2021). Shaxs va ijtimoiy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Shonazarov,Q. (2020). Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. UNESCO (2022). Inclusive Education for Children with Disabilities.
4. <https://startupschool.org> – Yangi boshlovchilar uchun start up g‘oyalari.
5. <https://edutopia.org> – Ta’limdagi innovatsiyalar va texnologik yechimlar.